E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

SO`NGGI YILLARDA QASHQADARYO QISHLOQ XO`JALIGI TAHLILI

Samadova Nargiza Muxiddinovna
Tarix fanlari nomzodi, Qarshi innavatsion ta`lim universiteti

Annotatsiya
Ushbu maqolada O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvida alohida o‘ringa ega bo‘lgan Qashqadaryo viloyati agrar tarmoqlari shakllanishi va rivojlanishi agrogeografik rayonlar kesimida tahlil qilingan. Maqola eng yangi tarix ko`rib chiqiladi.

Kalit so`zlar
Qishloq xo‘jaligi, agroiqlimiy resurs, dehqonchilik, chorvachilik, agrogeografik rayon, fermer xo‘jaligi.

KIRISH

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va, Yer kodeksigamuvofiq yer umummilliy boylik hisoblanadi. Shu sababli hozirgi va kelajak avlodlarning manfaatlarini ko‘zlab undan ilmiy asoslangan holda oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish, tuproq unumdorligini tiklash va oshirish, tabiiy muhitni asrash va yaxshilash, xo‘jalik yuritishning barcha shakllarini teng huquqli asosida rivojlantirish uchun sharoit yaratish, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarini himoyaqilishni ta’minlash iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlari izchillikbilan amalga oshirilayotgan bugungi kunda hal etilishi lozim bo‘lgan vazifalar jumlasiga kiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Yer fondini turli guruhlarga ajratib o‘rganish mumkin. Xususan qishloq xo‘jaligida yerdan foydalanish samaradorligini oshirish nuqtai nazaridan yer fondi tarkibini quyidagi belgilari bo‘yicha o‘rganish maqsadga muvofiq: belgilangan maqsadga ko‘ra; sifat holatiga ko‘ra; ma’muriy – hududiy bo‘linishiga ko‘ra; xo‘jalik maqsadida foydalanishiga ko‘ra. Birinchi guruhga qishloq va o‘rmon xo‘jaligi yerlari, ikkinchi guruhga esa qolgan barcha yerlar kiradi. Agar Qashqadaryo viloyatida 1990 yilda jami yer fondining 97,6 foizidan ishlab chiqarish fondlari sifatida foydalanilgan bo‘lsa, 2006 yilgakelib bu ko‘rsatkich 97,5 foizga teng bo‘ldi.

Bu birinchidan Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotining qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashganidan dalolat bersa, ikkinchidan tarkibiy o‘zgarishlar sekinlik bilan amalga oshayotganligini bildiradi. Jami yer fondida ikkinchi guruh yerlar ulushining o‘sib borishi qonuniyat hisoblanadi, chunki sanoat, transport va boshqa tarmoqlarning rivojlanishi, yo‘llar qurilishi kabi jarayonlar qishloq va o‘rmon xo‘jalik yerlarining bir qismini ular uchun ajratib berishni taqoza etadi. Bu holat yer resurslaridan samarali foydalanishnishart qilib qo‘yuvchi ob’ektiv sabablardan biri hisoblanadi.

Qashqadaryo viloyati statistka boshqarmasining ma’lumotlariga ko‘ra 2008 yil viloyat yer fondining eng katta qismi 2508,3 ming gektar yoki 87,8 fondi qishloq xo‘jaligi yuritish maqsadlariga ajratilgan yerlarga to‘g‘ri keladi. Bu esa viloyatda qishloq xo‘jaligi yuritish uchun katta imkoniyatlar mavjudliginiko‘rsatadi.

Qashqadaryoda 1980 – 2008 yillar davomida viloyat yer fondi hajmi o‘zgarmas bo‘lsada, uning tarkibida sezilarli o‘zgarishlar yuz bergan. Chunonchi, tahlil qilinayotgan davr mobaynida qishloq xo‘jaligi yerlari 22,9 ming gektarga yoki 0,9 foizga qisqargan. Buning natijasida mazkur yerlarni viloyat yer fondidagi ulushi 1990 yilda 88,6 foizdan 2008 yilda 87,8 foizgacha pasaydi.

Bu pasayish eng avvalo, o‘rmon xo‘jaligi, aholi punkitlari, sanoat, transport, mudofaa va boshqa maqsadlar uchun belgilangan yerlarning ham mutloq, hamnisbiy miqdorda o‘sganligi bilan bog‘liq.

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

Qashqadaryo viloyatida 1990-2008 yillar davomida o‘rmon xo‘jaligi yerlari 18,1 ming gektarga yoki 7,0 foizga o‘sdi. Bu asosan qishloq xo‘jaligi yerlarining bir qismini o‘rmon xo‘jaligiga ajratib berilishi hisobiga yuz berdi. Bu esa o‘rmon yerlarining jami yer fondidagi ulushini 9,0 foizdan 9,7 foizga o‘sishini ta’minladi.

Qashqadaryo viloyatining mintaqaviy joylashuvining o‘ziga xos tomonlari, ya’ni uning tog‘ va tog‘oldi zonalarida joylashganligi o‘rmon xo‘jaligi yerlarining ulushi yuqori ekanligini belgilab beradi va bu borada katta imkoniyatlar borligidan dalolat beradi.

Shaxrisabz (62,6%), Qamashi (67,1%), Kitob (68,2%), Dehqonobod (86,0%) va Yakkabog‘ (86,1%) tumanlarida qishloq xo‘jalik yerlarining nisbatan past ulushi jami yer maydonida o‘rmon xo‘jaligi yerlarining sezilarli salmoqqa ega ekanligi bilan tushuntiriladi.

Qishloq xo‘jaligida yerdan foydalanish samaradorligini oshirish nuqtai nazardan qishloq xo‘jalik yerlarini foydalanishi maqsadiga ko‘ra tarkibini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Qashqadaryo viloyati qishloq xo`jaligi salohiyati inobatga olingan holda bir qator prognozlar amalga oshirilganligi diqqatga sazovor.

1-jadval

Qashqadaryo viloyati dehqon xo‘jaliklarida chorvachilik mahsuloti ishlab chiqarishning prognoz ko‘rsatkichlari

Yillar	2020		2021		2022		2023		2024	
O‘lchov birligi	Y1 ming tonna	Y2 ming tonna	Y1 ming tonna	Y2 ming tonna	Y1 mln. dona	Y2 mln. dona	Y1 tonna	Y2 tonna	Y1 ming dona	X2 ming dona
Go‘sht,ming t.	326,12	326,68	348,72	351,44	372,89	378,23	398,73	407,17	426,36	438,36
Sut, ming t.	1265,28	1248,45	1354,32	1324,82	1449,61	1404,10	1551,62	1486,30	1660,8	1571,43
Tuxum,mln. dona	440,45	419,04	487,31	458,96	538,68	502,69	594,84	550,58	656,02	603,03
Jun, ming t.	7708,5	7983,48	7979,9	8324,42	8251,3	8671,4	8522,7	9024,42	8794,1	9383,5
Qorako‘l teri, ming dona	188,48	202,73	196,63	214,48	204,77	226,55	212,91	238,93	221,06	251,62

2-jadval

Qashqadaryo viloyati dehqon xo‘jaliklarida dehqonchilik mahsuloti ishlab chiqarishning prognoz ko‘rsatkichlari, (ming tonna hisobida)

Yillar	2020		2021		2022		2023		2024	
O‘lchov birligi	Y1	Y2	Y1	Y2	Y1	Y2	Y1	Y2	Y1	Y2
Don	160,99	163,23	164,58	168,03	168,18	172,98	171,77	178,07	175,36	183,31
Kartoshka	111,85	186,04	118,41	202,13	125,36	219,09	132,71	236,91	140,49	255,6
Sabzavot	466,93	416,12	504,1	445,4	543,2	476,74	584,22	510,28	627,18	546,19
Poliz	95,67	89,72	102,86	96,23	110,40	103,20	118,29	110,69	126,53	118,72
Meva, rezavorlar	85,25	82,02	92,47	87,08	100,06	92,02	108,02	96,79	116,35	101,37

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

Uzum	63,03	64,47	70,70	71,56	78,99	79,08	87,92	87,04	97,52	95,43

Yuqoridagi jadvallar ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Qashqadaryo viloyati dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarida prognoz natijalariga qaraganda, istiqbolda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ortadi[3].

Ushbu prognoz natijalari dehqon xo'jaliklaridagi barcha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan birga ularning iste'molini ham yuqori o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Jumladan, dehqon xo'jaliklarida don ishlab chiqarish 2018 yilga nisbatan 2024 yilda 1,15 martadan 1,20 martagacha; kartoshka 1-1,79 marta, sabzavot 1,4-1,7 marta; poliz 1,6-1,7 marta; meva va rezavorlar 1,5-1,8 marta; uzum 2-2,1 marta ko'payadi [4].

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda ham dehqon xo'jaliklari o'sish sur'atlariga egadir. Jumladan, go'sht ishlab chiqarish 2024 yilda 2018 yilga nisbatan 1,5:1,6 marta, sut ishlab chiqarish 1,5:1,6 marta, tuxum 1,7:1,9 marta, jun 1,3:1,4 marta, qorako'l teri 1,2:1,3 marta oshishi kutilmoqda.

XULOSA

Dehqon xo'jaliklari faoliyatida mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ekonometrik baholash hamda olib borilgan regression tahlillarimiz yordamida aniqlangan natijalarga ko'ra, dehqon xo'jaliklarining samaradorlik ko'rsatkichlari o'sish sur'atiga ega. Tahlil natijalariga ko'ra, qishloq xo'jaligi mahsulotlarida dehqon xo'jaligi mahsulotlarining miqdori diversifikatsiya qilish hisobiga 2024 yil 2018 yilga nisbatan 1,76 barobarga oshishi, dehqon xo'jaliklari soni 1,16 barobarga oshishi kutilmoqda. Shunga mos ravishda dehqon xo'jaliklari uchun ekin maydoni 2024 yilda 2017 yilga nisbatan 1,06 barobarga oshishi kutilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

1. Baratov P. – O'rta Osiyo daryolari va ularning xo'jalikdagi ahamiyati.- Toshkent: Fan, 1967. –

2. Rasulov A.R., Hikmatov F. H., Aytbaev D.P. Gidrologiya asoslari. –Toshkent: Universitet, 2003. -327 b.

3. Samieva G.T. "Dehqon xo'jaliklarida ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash yo'nalishlari". Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019.

4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi. Fond – 1619, ro'yxat № 11, yig'ma jild 196, 113 – varaq.